

“UCH HARF”

Tursunov Asilbek Hayrullayevich, - bo'lajak O'z joku talabasi
E-mail: asilbek30072005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu qo'l yozmada bizning milliy so'zlashuv vositamiz bo'lmish tilimiz haqida bir nechta misollar va shaxsiy subyektiv fikrlar bildirib o'tilgan. Maqolada qadrsizlanib borayotgan o'zbek tilimizni, hatto o'zbek bo'la turib ham ona tilini bilmaydigan “ ichidagi o'zbeklar o'qishsalar ham menimcha foydasi bo'ladi deb umid qilaman.

Kalit so'zlar: *Til, tarix, 1989-yil, 50 mln, hurmat, xulosa.*

Nega men aynan bu mavzuni tanladim? Til... Bor yo'g'i uch harfdan iborat so'z. Lekin, mana shu harfni to'g'ri ishlatyapmizmi? Menimcha esa yo'q. Men bugunning dolzarb mavzusini “ Til ” deb bildim. Chunki hozirgi kunda tilimiz qadri borgan sari qadrsizlanib bormoqda to'g'rimi? Hozirda o'zi til adabiyotni yaxshi bilmay turib, o'qituvchilik qilayotganlar yo'q emas. Bunday “ Tilchi ” o'qitgan o'quvchidan nimani ham kutish mumkin? O'z tilimizni yaxshi bilmay turib, boshqa tillarni o'rganishga oshiqamiz. Bu tilimizga bo'lgan qo'pol hurmatsizlik emasmi? Tilga bir yilda bir marta e'tibor beramiz. Til bayramizda, nega endi boshqa paytlarda til esga olinmasligi kerak? Kechmishi olis tarixga borib taqaladigan, o'zining betakror yozma manbaalariga ega bo'lgan nufuzli tillardan biri bu – o'zbek tilidir.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ushbu til Yer yuzi ahosining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir. Darhaqiqat, o'zbek tili shu kungacha ko'p yillik tarixiy taraqqiyot yo'lini mardonavor bosib kelmoqda. Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida “ O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi Qonuni 1989-yilning 21-oktabrida qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasining davlat tili “ O'zbek tili ” deb e'lon qilindi. 1993-yil 2-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “ Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida ” gi qonun qabul qilindi. Mustaqillik davri tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tilga e'tibor uning mavqeini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yish, mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridandir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tilga hurmatsizlik nimalarda ko'rinadi? Nima deb o'ylaysiz? Mening fikrimcha tilimizning mavqeini bilish uchun ijtimoiy tarmoqlarga kirsak bo'lgani, tilimizga bo'lgan hurmat qanchalar “ Yuksak ” ekanini bilishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi dahanaki janglarni kuzatib ba'zan tilimizga achinaman. O'zbekning buyuk ma'rifatparvari A. Avloniy “ Har bir millatning dunyoda borlig'in

ko'rsatadurg'on o'ynayi jahoni til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdir ' deganlarida nechog'li haq edilar. Bu oynani sinishiga yo'l qo'ymaylik.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkunki jahondagi barcha tillar o'z tillarini suyushadi va hurmat qilishadi avvalo o'z tillarini mukammal o'rgangan holda keyin qolgan tillarga e'tibor berishadi shu jumladan biz ham o'z tilimizni hurmat qilsak vatanimizni hurmat qilgan bo'lamiz va jahonda ham munosib o'rin topish unchalik ham qiyin bo'lmaydi, chunki o'zini vatanini sevib hurmat qilgan xalqni qolgan vatanlar ham hurmat qiladi.

Maqola to'laqonlikcha muallifning subyektiv fikrlari bilan boyitilgan.